

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

VOLUME II | ISSUE 3 | MARCH-APRIL | 2024

ISSN: 2181-4031



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ- II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3-4

ТОШКЕНТ – 2024

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 3-4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2024-3-4>

Бош муҳаррир:

Тураев Б.

– фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д.

– иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент
2. Ходжаметова Гулчира Илишевна – тарих фанлари номзоди, профессор
3. Ҳайдаров Ўрал Ахмадович – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD), доцент
4. Мусаев Джамалиддин Камалович – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент
5. Жамолдинов Хумоюн Бахтиёрбек ўғли – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент в.б
6. Узакова Зарина Фуркатовна – социология ф.б.ф.д (PhD), доцент
7. Мамадияров Дилшод Уралович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент
8. Тўраев Шавкат Нишонович – фалсафа фанлари номзоди, доцент
9. Бердиева Гулмира Аминовна – тарих фанлари номзоди
10. Гаипов Жасур Бахром ўғли – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD)
11. Сохибова Лола Жонибоевна – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
12. Шарипов Дилшод Бахшиллоевич – сиёсатшунос, эксперт
13. Содиржонов Мухриддин
Махамадаминович – социология ф.б.ф.д (PhD)
14. Саттаров Дилшод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент
15. Турақулов Акмалжон Анварович – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
16. Каримов Бозарқул Худдайбердиевич – фалсафа фанлари номзоди

“Фундаментал тадқиқотлар” илмий-амалий журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.5 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

GAFUROV Farxod Rashidovich

Bojxona instituti katta o'qituvchisi

yu.f.b.f.d. (PhD)

mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10976694>

BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARNI FOSH ETISHDA O'TKAZILADIGAN TEZKOR-QIDIRUV TADBIRLARINING TAVSIFI VA AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda qo'llaniladigan tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasi, tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasiga ta'rif berish bo'yicha olimlarning ilmiy yondashuvlari, tezkor-qidiruv metodikasi tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda qo'llaniladigan tezkor-qidiruv tadbirlari turlari va ularning tavsifi, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bojxona sohasidagi jinoyatlar, jinoyat protsessi, tezkor-qidiruv tadbirlari, tezkor-qidiruv tadbirlarining turlari, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, tezkor-qidiruv metodikasi.

ОПИСАНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ, ПРОВОДИМЫХ ПРИ РАСКРЫТИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В ТАМОЖЕННОЙ СФЕРЕ

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье рассмотрено понятие оперативно-розыскных мероприятий, используемых при раскрытии преступлений в таможенной сфере, научные подходы ученых к определению понятия оперативно-розыскных мероприятий, понятия оперативно-розыскной методики и ее характеристики. Освещены виды оперативно-розыскных мероприятий, применяемых при раскрытии преступлений в таможенной сфере и их описание, существующие проблемы и научно обоснованные предложения, и рекомендации по их решению.

Ключевые слова: преступления в сфере таможенного дела, оперативно-розыскные мероприятия, виды оперативно-розыскных мероприятий, уголовный процесс, нарушение таможенного законодательства, Уголовный кодекс, Уголовно-процессуальный кодекс, оперативно-розыскная методика.

DESCRIPTION AND IMPORTANCE OF OPERATIVE SEARCH MEASURES CARRIED OUT WHEN SOLVING CRIMES IN THE CUSTOMS SECTOR

ANNOTATION

This scientific article examines the concept of operational investigative measures used in solving crimes in the customs sphere, the scientific approaches of scientists to the definition of the concept of operational investigative measures, the concept of operational investigative methodology and its characteristics. The types of operational investigative measures used in solving crimes in the customs sphere and their description, existing problems and scientifically based proposals and recommendations for their solution are covered.

Key words: crimes in the field of customs affairs, operational investigative measures, types of operational investigative measures, criminal proceedings, violation of customs legislation, Criminal Code, Criminal Procedure Code, operational investigative methodology.

Bugungi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etish mexanizmi, usullari va shakllari yangicha ko‘rinish tus olayotganligi sababli, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda o‘tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbirlarini doimiy tadqiq qilish, ularni bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish bo‘yicha bojxona organlari oldiga qo‘yilayotgan vazifalar va talablarga qanchalik darajada javob berishini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, hozirgi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlar eng so‘nggi fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda sodir etilmoqda.

Jumladan, uchuvchisiz uchish apparatlari orqali turli tovarlarni bojxona chegarasi orqali noqonuniy ravishda olib o‘tishning yuz berayotganligi, shuningdek, xalqaro Internet tarmog‘i orqali, ya‘ni kibermakon imkoniyatlaridan foydalangan holda valyuta qimmatliklari va narkotik moddalarni noqonuniy ravishda bojxona chegarasidan olib o‘tishga oid ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilmoqda. Shu bois, yangicha usullar va shakllarda sodir etilayotgan bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda o‘tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbirlarining tavsifi va hozirgi zamon holatini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganib chiqib, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish muhim o‘rin tutmoqda.

Hozirgi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda qo‘llaniladigan eng asosiy tezkor-qidiruv usullaridan biri bu tezkor-qidiruv tadbirlari hisoblanadi. Shu bois, bir qator o‘zbekistonlik va xorijlik olimlar bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda o‘tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlarini tadqiq qilib, tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasini yoritib berishgan hamda tezkor-qidiruv tadbirlarini ma‘lum bir shartlar asosida guruhlarga bo‘linishini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berishgan.

Jumladan, o‘zbekistonlik olimlardan A.Xamdamov, T.Saitbayev, S.Gordeev, R.Rashitxodjayevlar tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan:

Tezkor-qidiruv tadbirlari – “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlangan razvedik-izlov xususiyatiga ega bo‘lgan, vakolatli subyektlar tomonidan normativ-huquqiy hujjat talablariga muvofiq o‘tkaziladigan hamda asosan oshkora vosita va usullarni nooshkora vosita va usullar bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llashga asoslangan hamda TQF masalalarini hal qilish uchun zarur taktik ma‘lumotlarni bevosita aniqlashga qaratilgan chora va harakatlar tizimi” deb ta‘riflangan [1, B. 68]. Ammo, mazkur ta‘rifga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ushbu tushunchaning bir qator bahsli jihatlarini ko‘rish mumkin:

- *birinchidan*, tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasi juda keng qamrovli ifodalangan;
- *ikkinchidan*, unda aynan tezkor-qidiruv tadbirlariga xos bo‘lgan alohida xususiy belgilari, ya‘ni ularni o‘tkazish asoslari va shartlari o‘z aksini topmagan. Binobarin, tezkor-qidiruv faoliyatining tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasidan tashqari boshqa yo‘nalishlariga ham aynan ushbu ta‘rifni berish mumkin.

Rossiyalik olimlar V.Mixaylov va A.Fedorovlar esa tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan:

“Tezkor-qidiruv tadbirlari – maxsus vakolat berilgan shaxslar tomonidan tezkor-qidiruv faoliyati qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar va tartibda muayyan tezkor tekshiruv ish jildi yoki dastlabki materiallar bo'yicha tadqiqot predmetiga kiruvchi ma'lumotlarni qo'lga kiritish borasidagi tadbirlar majmui.” deb ta'rif berilgan. Ya'ni, ushbu ta'rifdan shuni ko'rish mumkinki, tezkor-qidiruv tadbirlari deganda faqat *“ma'lumotlarni qo'lga kiritish”* nazarda tutilgan. Ta'kidlash joizki, ayrim hollarda tezkor-qidiruv tadbirlari nafaqat ma'lumotlarni qo'lga kiritish, balki boshqa maqsadlar uchun ham o'tkaziladi. Masalan, jinoyatchilarni ushlab uchun qulay sharoit yaratish, maxfiylik asosida ko'maklashuvchi shaxslar xavfsizligini ta'minlash kabi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasini tadqiq etish borasida rossiyalik olim A.Yu.Shumilov ham o'z hissasini qo'shgan bo'lib, u tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan:

“Tezkor-qidiruv tadbirlari – tezkor-qidiruv faoliyatida qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni qo'lga kiritish usullari” [2, B. 125].

Ushbu tushuncha ham tezkor-qidiruv tadbirlarining barcha xususiy belgilarini ifoda etmaydi. Chunki maxfiylik asosida ko'maklashuvchi shaxsdan axborot olish jarayoni ham tezkor-qidiruv faoliyatida qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgani holda biz uni tezkor-qidiruv tadbirlari deb hisoblay olmaymiz. Chunki tezkor-qidiruv tadbirlarini tezkor faoliyat turlarining boshqa yo'nalishlaridan farqlovchi xususiy belgilaridan biri, bu tezkor-qidiruv tadbirlarining qonunda belgilangan asoslar va shartlarga binoan o'tkazilishidir.

Yuqoridagi tushunchada esa bunday xususiy belgilar mavjud emas. Bundan tashqari, rossiyalik olim A.Yu.Shumilov *“tezkor-qidiruv tadbirlari tarkibi”* to'g'risida fikr bildirgan. Ya'ni, u tezkor-qidiruv tadbirlari tarkibini tasniflashda jinoyat qonunchiligida mavjud bo'lgan jinoyat tarkibi (obyekt, obyektiv tomoni, subyekt, subyektiv tomoni)ni asos qilib olgan. Uning fikricha, tezkor-qidiruv tadbirlari tarkibini aniqlab olmasdan turib, tezkor-qidiruv tadbirlarini bir-biridan farqlash yoki tezkor xodimning harakatini tezkor-qidiruv tadbiri sifatida baholash qiyinchilik tug'diradi. Ushbu qarashlarning bahsli ekanligini asoslash uchun quyidagi fikrlarni aytish mumkin:

- *birinchidan*, jinoyat huquqida jinoyat tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning majburiy sharti hisoblanadi. Ya'ni, bunda gap aynan jinoyat, noqonuniy, ijtimoiy xavfli qilmish to'g'risida boradi.

- *ikkinchidan*, tezkor-qidiruv tadbiri tarkibi to'g'risida esa gap tezkor bo'linmalarining nafaqat qonuniy xarakterlari, balki ular o'tkazishi va amal qilishi majburiy bo'lgan harakatlar to'g'risida boradi. Bu majburiyat O'zbekiston Respublikasining *“Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”*gi Qonuni, Jinoyat-protsessual kodeksi va tezkor xodimlarning mansab vazifalaridan kelib chikadi. Shu bois A.Yu.Shumilovning nuqtai-nazarini tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasi mazmuniga to'liq mos kelmaydi deb aytish mumkin.

Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, bu borada soha olimlari tomonidan hozirgi kunda tegishli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirishga ehtiyoj mavjud. Bugungi kunda O'zbekistonda soha mutaxassislari orasida tezkor-qidiruv tadbirlarining mazmun-mohiyati, tushunchasi, asosiy belgilari va tuzilishini aniqlashtirish xususida yagona yondashuv shakllantirilmagan.

Jumladan, o'zbekistonlik olimlar A.K. Zakurlyayev va Yu.S.Po'latovlar tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishgan:

“Tezkor-qidiruv tadbirlari – bu tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda o'tkaziladigan, to'liq ro'yxati “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”gi Qonunda belgilangan aniq harakatlar, tezkor-qidiruv faoliyatining tarkibiy elementlarini o'zida ifodalaydi, bu elementlar jamuljam holda tezkor-qidiruv faoliyatini tashkil etadideb ta'rif keltirilgan [3, B. 76]. Ushbu tushuncha ta'rifning bahsli ekanligini asoslash uchun quyidagi fikrlarni ta'kidlash mumkin:

- *birinchidan*, tushunchada keltirilgan “to‘liq ro‘yxati “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan aniq harakatlar, tezkor-qidiruv faoliyatining tarkibiy elementlarini o‘zida ifodalaydi” jumlasini noaniq ifodalangan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida tyezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning ro‘yxati, 12-moddasida tyezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning huquqlari ro‘yxati, 13-moddasida tyezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning majburiyatlari ro‘yxati, 14-moddasida tyezkor-qidiruv tadbirlarining turlari ro‘yxati, 15-moddasida tyezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish uchun asoslar ro‘yxati keltirilgan bo‘lib, mualliflar aynan qaysi ro‘yxatlarni nazarda tutayotganligi no‘malum qolgan. Chunki, yuqorida ko‘rsatilgan 10, 12, 13, 14, 15-moddalarda ko‘rsatilgan ro‘yxatlar tezkor-qidiruv faoliyatining tarkibiy elementlarini tashkil etadi. Ya‘ni mualliflarning ta‘rifida ishlatilgan ro‘yxatlar va tarkibiy elementlar jumalari tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasi mazmuniga nisbatan keng qamrovli hisoblanadi. Shu bois, ta‘rifda keltirilgan ro‘yxati va tarkibiy elementlar jumalalarini ixchamlashtirish va aniqlashtirish zarurati mavjud.

- *ikkinchidan*, tushunchaning yana bir kamchiligi unda tezkor-qidiruv tadbirlarining xususiy belgilari bo‘lgan ularni o‘tkazish asoslari va shartlarining mavjud emasligi hamda tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad ifodalanmagan.

Shunga qarmay, o‘zbekistonlik mualliflar A.K. Zakurlayev va Yu.S.Po‘latovlarni O‘zbekiston Respublikasida “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingandan so‘ng, tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasiga mualliflik ta‘rifini ishlab chiqqan dastlabki olimlar deb e‘tirof etish mumkin.

Shuningdek, o‘zbekistonlik olim V.Karimov tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan:

“*Tezkor-qidiruv tadbirlari* – bu tezkor-qidiruv faoliyatining tarkibiy qismi bo‘lib, faoliyatning subyektlari tomonidan qonunda belgilangan asoslar va shartlarga binoan, oshkora va nooshkora usullar va vositalar uyg‘unligida faoliyatning vazifalarini hal etishga yo‘naltirilgan o‘zaro mushtarak harakatlar majmuidir.” deb ta‘rif berilgan [4, B. 244].

Mazkur ta‘rif tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasining barcha umumiy va xususiy belgilarini to‘liq qamrab olgan.

Masalan, mazkur tushunchadan kelib chiqadigan xususiyatlarni quyidagicha asoslash mumkin:

- *birinchidan*, ta‘rifda tezkor-qidiruv tadbirlari tezkor-qidiruv faoliyatining tarkibiy qismi ekanligi ko‘rsatilgan;

- *ikkinchidan*, tezkor-qidiruv tadbirlari faqat tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega subyektlar tomonidan o‘tkazilishi ko‘rsatilgan;

- *uchinchidan*, tezkor-qidiruv tadbirlari O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan asoslar va shartlarda o‘tkazilishi ko‘rsatilgan;

- *to‘rtinchidan*, ta‘rifda tezkor-qidiruv tadbirlari O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan oshkora, nooshkora usullar va vositalar uyg‘unligida o‘tkazilishi ko‘rsatilgan;

- *beshinchidan*, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad tezkor-qidiruv faoliyati vazifalarini hal qilish ekanligi ko‘rsatilgan. Ammo mazkur ta‘rifda ham ayrim kamchiliklar uchraydi.

Masalan, ta‘rifda keltirilgan “...oshkora va nooshkora usullar va vositalar uyg‘unligi...” jumlasiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasida “Oshkora va nooshkora usullar uyg‘unligi prinsipi” ko‘rsatilgan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ta‘rifda esa aynan ushbu prinsipga e‘tibor qaratilgan va inobatga olingan lekin “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasida ko‘rsatilgan “Qonuniylik prinsipi”, 7-moddasida ko‘rsatilgan “Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi prinsipi” va 8-moddasida ko‘rsatilgan “Konspiratsiya prinsipi” tushunchalari ta‘rif bilan qamrab olinmagan.

Yuqoridagi tahlillardan hamda tezkor-qidiruv faoliyati qonunchiligi talablaridan kelib chiqib, tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasini quyidagicha yangi ta'rif bilan ifodalash mumkin:

“Tezkor-qidiruv tadbirlari – tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan tezkor-qidiruv faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladigan va O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida” Qonuni 14-moddasida ro‘yxati keltirilgan tezkor-qidiruv harakatlari majmuidir.”

Tezkor-qidiruv tadbirlarining mazkur tushunchadan kelib chiqadigan xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin:

1) ushbu ta'rifda tezkor-qidiruv tadbirlari tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida amalga oshirilishi ko'rsatildi. Ya'ni tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish maqsadi va vazifalari tushunchada qamrab olingan.

2) mazkur ta'rifda tezkor-qidiruv tadbirlari O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni bilan maxsus vakolat berilgan subyektlar tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutildi. Ya'ni bu shuni anglatadiki, tezkor-qidiruv tadbirlari qonun bilan ruxsat berilmagan boshqa subyektlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin emasligini bildiradi.

3) ushbu ta'rifda tezkor-qidiruv tadbirlari tezkor-qidiruv faoliyatiga oid barcha qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi nazarda tutildi. Chunki, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish tezkor-qidiruv faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib-qoidalar bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Ya'ni tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni talablari va ushbu qonun bilan bog‘liq boshqa qonunosti hujjatlarida belgilangan tartib-qoidalarga ham amal qilishni o‘z ichiga oladi. Ya'ni tushuncha qamrovida tezkor-qidiruv tadbirlari bilan bog‘liq amaldagi qonunchilikning biror-bir jihati inobatga olinmasdan qolmaydi.

4) ushbu ta'rifda “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasida ro‘yxati keltirilgan tezkor-qidiruv harakatlari ekanligi ko'rsatildi. Chunki, O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlarining turlari ko'rsatilgan. Bu shuni anglatadiki, ushbu moddada ko'rsatilmagan harakatlar tezkor-qidiruv tadbirlari hisoblanmaydi. Ya'ni tezkor-qidiruv tadbirlarining turlari aniq belgilanib, cheklab qo'yilgan.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlar va sohaviy olimlarning fikr-mulohazalari natijasida tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasi ishlab chiqildi va aniqlik kiritildi.

Bugungi kunda ayrim olimlar, tezkor-qidiruv tadbirlariga nisbatan tizimli yondashuv nazariyasi jihatidan qarab, tezkor-qidiruv tadbirlarini tarkibiy qismlarga bo'lish holatlari kuzatilmogda.

Jumladan, o‘zbekistonlik olim V.Karimov tizimli yondashuv nuqtai-nazaridan tezkor-qidiruv tadbirlarini quyidagi o‘zaro mushtarak elementlarga ajratib ko'rsatgan:

1. Obyekt; 2. Maqsad; 3. Mazmun; 4. O'tkazish subyektlari; 5. Tezkor-qidiruv tadbirlari samaradorligini oshiruvchi tashkiliy usullar; 6. Axborot-texnik ta'minot; 7. Natijalarni rasmiylashtirish [5, B. 242-243].

Tadqiqotchi sifatida mazkur olimning fikriga qo'shilaman. Chunki har qanday faoliyat ma'lum bir tartibga solingan va tizimlashtirilgan bo'lsa, uni o'rganish, u bilan munosabatga kirish oson, aniq va tartibli ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish joizki, bugungi kunga qadar, jinoyatchilikka qarshi kurashishda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishni xususiylashtirish, ya'ni har bir sohaviy jinoyatlar turlari (bojxona sohasidagi jinoyatlar, soliq qonunchiligiga qarshi jinoyatlar) bo'yicha ixtisoslashtirish (metodika yaratish) masalalarini ko'plab olimlar o'rganib chiqib, o'z fikrlarini bildirib o'tgan.

Jumladan, o‘zbekistonlik olim V.Karimovning fikriga ko‘ra, tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari amaliy faoliyatining mazmuni qo‘llanilayotgan kuchlar, vositalar va usullarning doimiy takomillashuvini talab qiladi. Jinoyat alomatlarini aniqlashdagi tizimsizlik tezkor ahamiyatga ega axborotni yo‘qotilishiga va salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, rossiyalik soha olimlari A.I.Glushkov, S.I.Davydov, I.A.Klimov, G.A.Kornilov, G.K.Sinilovlar o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida alohida jinoyat turlarini fosh etishning xususiy metodikasini ishlab chiqish uchun ahamiyatli bo‘lgan qoidalarni keltirib o‘tganlar.

Mazkur rossiyalik olimlarning fikriga ko‘ra, **tezkor-qidiruv metodikasining eng muhim belgisi** – bu kuchlar, vositalar va usullarni, tezkor-qidiruv vaziyat, muayyan turdagi jinoyatlarning sodir etilish uslublari, gumon qilinuvchining shaxsiy xususiyatlari tavsifi bilan o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib tizimli qo‘llash hisoblanadi.

Shuningdek, o‘zbekistonlik olim V.Karimovning fikriga ko‘ra, **“Tezkor-qidiruv metodikasi** – bu alohida turdagi jinoyatlarni o‘z vaqtida aniqlash, hujjatlashtirish, oldini olish va fosh etish uchun tezkor-qidiruv kuchlari, vositalari va usullarini samarali qo‘llashni tashkil qilish va o‘tkazish taktikasi bo‘yicha ilmiy asoslangan qoidalar va tavsiyalar tizimidir.” deb tavsiflangan [6, B.313-317].

Shu bilan birga, o‘zbekistonlik olim V.Karimov jinoyatchilikka qarshi kurashishda tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan **2 turdagi, ya’ni umumiy va maxsus tezkor-qidiruv metodikalarini** ko‘rsatib o‘tgan. Xususan, o‘zbekistonlik olim V.Karimovning bergan tavsifga ko‘ra, **umumiy metodika** umumnazariy prinsiplarni o‘z ichiga oladi va universal darajani tashkil qiladi. U namunaviy andaza sifatida muayyan jinoyatlarni fosh etish bo‘yicha xususiy metodikalarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiy metodika quyidagi qoidalarni o‘z ichiga oladi:

- har qanday jinoyatni fosh etishda eng samarador tezkor-qidiruv vositalar va usullarni qo‘llashga oid namunaviy tavsifdagi maslahatlar, uslubiy tavsiyanomalar tizimi hisoblanadi;
- uslubiy tavsiyanomalar tizimi asosini namunaviy tezkor-qidiruv vaziyatiga mos bo‘lgan kompleks harakatlar tavsifi tashkil etadi;
- uni ishlab chiqishdan ko‘zlangan maqsad – soha olimlari tomonidan jinoyatlarni fosh etishning maxsus xususiy metodikasi, modeli (shabloni)ni shakllantirish hisoblanadi;
- garchand umumiy metodika jinoyatlarni fosh etishning namunaviy jarayonini aks ettirishga qaratilganiga qaramasdan, u muayyan jinoyatni fosh etish jarayonida yuzaga keluvchi vaziyatlarga moslashtirilishi va amaliy faoliyatda qo‘llanilishi mumkin.

Xususiy metodika umumiy metodika qoidalariga asoslanadi. U quyidagi omillar bilan shartlangan alohida turdagi jinoyatlarni aniqlash xususiyatlarini hisobga oladi:

- jinoyat turi, sodir etilish uslubi, joyi va vaqti, gumon qilinuvchining shaxsi;
- jinoyatga oid tezkor axborot mazmuni, uni olish manbalari;
- jinoyat holatlarini aniqlash, jinoyatlarni tezkor-qidiruv oldini olish choralarni ishlab chiqish;
- jinoyatchilikning sodir etilishiga sababchi ijtimoiy-iqtisodiy va kriminogen omillarni bartaraf etish vazifalari.

Xususiy metodikalar muayyan turdagi (guruhdagi) jinoyatlarni aniqlashda tezkor-qidiruv faoliyatining kuchlari, vositalari va usullarini samarali qo‘llashga qaratilgan ilmiy asoslangan va tezkor-qidiruv amaliyotida sinalgan qoidalar, namunaviy harakatlar, maslahatlarga oid uslubiy tavsiyanomalar tizimini ifodalaydi.

Jinoyatlarni fosh etishga oid uslubiy tavsiyanomalar kompleks tavsifga ega bo‘lib, quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- tezkor-qidiruv tadbirlari va protsessual harakatlarning uyg‘unligini;
- eng samarador tezkor-texnik vositalardan foydalanish;
- jinoyatlarni fosh etish jarayonida turli bo‘linmalar (tezkor-qidiruv, tezkor-texnik va boshqalar)ning ishtiroki va hamkorligi;

- jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari, nazorat qiluvchi organlar bilan hamkorlikning turli shakllaridan foydalanish;

- jinoyatni fosh etishga koʻmaklashuvchi shaxslarni jalb qilish.

Tezkor-qidiruv amaliyotida uslubiy tavsiyanomalar, shuningdek, jinoyatlarni fosh etishda tezkor-qidiruv faoliyati kuchlari va vositalarining tejalishiga, tezkor-qidiruv tadbirlarini oʻtkazishning qulay taktik usullarini belgilashga, tezkor boʻlinmalarning samarali hamkorligini taʼminlashga xizmat qiladi [7, B. 315-316].

Tadqiqotchi sifatida oʻzbekistonlik olim V.Karimovning fikriga qoʻshilaman. Xususan, V.Karimov tavsiya etgan yuqoridagi 2 turdagi metodik jihatlarni bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda oʻtkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlarini xususiylashtirishda, yaʼni har bir jinoyat turi boʻyicha tezkor-qidiruv tadbirlarini oʻtkazish metodikasini ishlab chiqishda inobatga olish mumkin [8, B. 5].

Yuqoridagilarni inobatga olib aytganda, bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni 14-moddasiga koʻra, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda quyidagi 16 turdagi tezkor-qidiruv tadbirlari oʻtkazilmoqda:

1) soʻrov - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega boʻlgan jismoniy va yuridik shaxslar, faktlar va holatlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni bilgan yoki bilishi mumkin boʻlgan shaxs bilan bevosita muloqotda boʻlish jarayonida axborot olishdan iborat boʻlgan tadbir;

2) maʼlumotlar toʻplash - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun hujjatlarni, materiallarni, maʼlumotlar bazalarini axborot tizimlarini va axborot resurslarini oʻrganish, shuningdek soʻrovnomalar yuborish orqali jismoniy va yuridik shaxslar, faktlar va holatlar haqida ahamiyatga ega boʻlgan axborotni, shu jumladan bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarni olishga qaratilgan tadbir;

3) qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yigʻish - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida moddiy obyektlarni kelgusida qiyosiy tekshirish uchun olishdan iborat boʻlgan tadbir;

4) tekshirish uchun xarid qilish - yuridik yoki jismoniy shaxslardan tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega boʻlgan tovarlarni yoki xizmatlarni haq evaziga xarid qilishdan iborat boʻlgan tadbir;

5) nazorat ostida olish - yolgʻondan bitim tuzishdan, yaʼni qonunchilik buzilishi faktini aniqlash va hujjatlashtirish uchun tovarlarni, valyuta qimmatliklarini, moddalarni hamda boshqa predmetlarni isteʼmol qilish yoki sotish maqsadini koʻzlamasdan olishdan iborat boʻlgan tadbir;

6) predmetlarni va hujjatlarni tekshirish - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida predmetlarni va hujjatlarni oʻrganish uchun zarur ilmiy, texnikaviy va boshqa maxsus bilimlarga ega boʻlgan mutaxassislarni jalb etgan holda oʻtkaziladigan tadbir;

7) tezkor kuzatuv - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega boʻlgan axborotni olish maqsadida shaxslarning harakatlarini, hodisalarni va jarayonlarni bevosita yoki bilvosita (texnik vositalardan foydalangan holda) nooshkora kuzatish va qayd etishdan iborat boʻlgan tadbir;

8) shaxsning aynanligini aniqlash - tekshirilayotgan yoki qidiruvdagi shaxsning shaxsini identifikatsiya qilish yoxud xususiy belgilari asosida aniqlashdan iborat boʻlgan tadbir;

9) turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega boʻlgan shaxslar, faktlar hamda holatlarni aniqlash maqsadida turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, kompyuterlarni, aloqa qurilmalarini va transport vositalarini bevosita yoki bilvosita (texnik vositalardan foydalangan holda) koʻzdan kechirish hamda oʻrganishdan iborat boʻlgan tadbir;

10) pochta, kuryerlik jo'natmalari va telegraf xabarlarini nazorat qilish - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo'lgan axborotni olish maqsadida pochta, kuryerlik jo'natmalari hamda telegraf xat-xabarlarini nooshkora tanlab olish va o'rganishdan iborat bo'lgan tadbir;

11) telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish - maxsus texnik vositalardan foydalangan holda olib boriladigan so'zlashuvlarni, shu jumladan uzatiladigan matnli, grafik va multimedia axborotini nooshkora eshitib turish, tutib qolish va qayd etishdan iborat bo'lgan tadbir;

12) abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risida axborot olish - abonentlar yoki abonent qurilmalari (foydalaniladigan asbob-uskuna) o'rtasidagi bog'lanishlar sanasi, vaqti, davomiyligi to'g'risida axborot va boshqa ma'lumotlarni nooshkora olishdan iborat bo'lgan tadbir;

13) tezkor kiritish - tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ xodimini yoxud maxfiylik asosida ko'maklashuvchi shaxsni jinoiy-kriminogen muhitga yoki tezkor ahamiyatga ega bo'lgan obyektga tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida kiritishdan va ularning imkoniyatlaridan nooshkora foydalanishdan iborat bo'lgan tadbir;

14) nazorat ostida yetkazib berish - erkin realizatsiya qilinishi taqiqlangan yoki muomalasi cheklangan yoxud jinoyat objekti, predmeti va quroli bo'lgan tovarlar, valyuta qimmatliklari, moddalar va boshqa predmetlar olib o'tilishini (tashilishini, jo'natilishini, topshirilishini) tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida nooshkora nazorat qilishdan iborat bo'lgan tadbir;

15) niqoblangan operatsiya - ikki yoki undan ortiq tezkor-qidiruv tadbirini tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida oshkora va nooshkora usullardan foydalangan holda o'tkazishni o'z ichiga oladigan kompleks tadbir;

16) tezkor eksperiment - g'ayrihuquqiy qilmish sodir etgan yoki unga tayyorgarlik ko'rayotgan shaxslarni fosh etish va aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ tomonidan to'liq boshqariladigan va nazorat qilinadigan sharoitni muayyan hodisani qaytadan tiklash yo'li bilan sun'iy ravishda vujudga keltirishdan iborat bo'lgan tadbir.

Ammo o'tkazilgan tadqiqot ishlari natijasiga ko'ra, bugungi kunda amaldagi qonunlar bilan tartibga solinmagan, yangi paydo bo'layotgan ijtimoiy munosabatlar sharoitida yangi salbiy tendensiyalarni, masalan amaldagi qonunchilikda ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilanmagan, yangi paydo bo'lgan shaxs, jamiyat, davlat uchun ijtimoiy xavfli qilmishlar, shu jumladan bojxona sohasidagi va boshqa jinoyatlarini sodir etishning kibermakonga ko'chishi bilan bog'liq salbiy tendensiyalar aniqlash va ularni erta barvaqt oldini olish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotga asoslangan **"tezkor tadqiqot"** nomli yangi tezkor-qidiruv tadbirini amaliyotga joriy etish va O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirish kiritib, huquqiy mustahkamlab qo'yish maqsadga muvofiq [9, 107-b.].

Bunda **"tezkor tadqiqot"** nomli yangi tezkor-qidiruv tadbiriga quyidagicha ta'rif berish:

"Tezkor tadqiqot – tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ma'lumotlar tahlili asosida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga zarar yetkazuvchi xavf va tahdidlar, yangi salbiy tendensiyalarning vujudga kelishiga, ma'muriy va jinoiy huquqbuzarliklarning sodir etilishiga shart-sharoit yaratuvchi sabab va omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan nafaol, ikkilamchi tezkor-qidiruv tadbiridir."

Mazkur taklifni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

- *birinchidan*, jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotida tezkor xodimlar tomonidan Jinoyat kodeksi bilan taqiqlanmagan, ya'ni Jinoyat kodeksiga kiritilmagan, yangidan paydo bo'lgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik va hodisalar to'g'risida ma'lumot olinganda, bunday harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, ularning faoliyatini fosh etish va javobgarlikka tortish imkonsiz bo'lib turadi.

Chunki, bunday ijtimoiy xavfli qilmishlar (harakat yoki hodisalar) yangi paydo boʻlgan boʻlib, hali ular Jinoyat-protsessual kodeksi bilan tergovga qadar tekshiruv va tergov organlariga taqsimlab berilgan Jinoyat kodeksi moddalarini sifatida mavjud boʻlmaydi. Shu bois, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan bu kabi ijtimoiy xavfli qilmishlarga nisbatan tezkor-qidiruv faoliyati amalga oshirishga huquqiy asos yoʻq;

- *ikkinchidan*, hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 14-moddasiga asosan, tezkor xodimlarning harakatlari 16 turdagi tezkor-qidiruv tadbirlarini oʻtkazish orqali cheklangan boʻlib, Jinoyat kodeksiga kiritilmagan, yangidan paydo boʻlgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik va hodisalar toʻgʻrisida maʼlumot olinganda ularni jinoyat yoki jinoyat emasligi, huquqiy tartibga solingan yoki solinmaganligi, xorijiy davlatlar amaliyotidagi holati, shaxs, jamiyat va davlat uchun ijtimoiy xavfli xususiyatlari bor yoki yoʻqligini tezkor-qidiruv yoʻllari bilan oʻrganishga, tadqiqot oʻtkazishga va tahlil qilishga imkon beruvchi tezkor-qidiruv tadbiri mavjud emas;

- *uchinchidan*, “tezkor tadqiqot” nomli ikkilamchi, nafaol tezkor-qidiruv tadbirini qonunchilikka kiritish tezkor xodimlarga yangidan paydo boʻlgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik va hodisalarni tadqiqot qilish va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi [10, B. 8].

Yuqoridagi taklifdan tashqari, bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni 14-moddasiga qoʻshimcha kiritib, turli jinoyatlarni sodir etib, tergovga qadar tekshiruv va tergov hamda sud organlaridan qochib yurgan, qidiruvda boʻlgan gumon qilinuvchi shaxslarni ushlashga moʻljallangan quyidagi mazmundagi yangi tezkor-qidiruv tadbirini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

“Jinoyatga tayyorgarlik koʻrayotgan, sodir etayotgan yoki sodir etgan shaxsni ushlash - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida jinoyatga tayyorgarlik koʻrayotgan, sodir etayotgan yoki sodir etgan, qidiruvda boʻlgan, tergov va suddan qochib yurgan shaxslarni tezkor-qidiruv kuchlari, vositalari va tezkor ish uslublarini qoʻllagan holda amalda ushlashdan (qoʻlga olishdan) iborat boʻlgan tadbir”

Ushbu taklifni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

- bugungi kunda tezkor-qidiruv amaliyotida ayrim tezkor-qidiruv tadbirlari jinoyat sodir etayotgan shaxsni jinoyat ustida ashyoviy dalillar bilan qoʻlga olishga (ushlashga) moʻljallangan [11, B. 5-8]. Bunday qoʻlga olish alohida maxsus tayyorgarlik qilishni va tezkor kuch va vositalarni qoʻllashni talab qiluvchi alohida jismoniy harakatlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Masalan, nazorat ostida olish va nazorat ostida yetkazib berish tezkor-qidiruv tadbirida jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs jinoyat ustida ashyoviy dalillar bilan ushlanishi (qoʻlga olinishi) mumkin ammo jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchini ushlashga oid amaliy-tashkiliy tezkor harakatlar Qonunda koʻrsatilmagan va huquqiy tartibga solinmagan;

- Oʻzbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni 4-moddasida surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirinib yurgan, jinoyat jazodan boʻyin tovlayotgan shaxslarni, bedarak yoʻqolgan shaxslar va qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarni qidirishni amalga oshirish, shuningdek tanib olinmagan murdalarning shaxsini aniqlash vazifasi yuklatilgan. Ammo Oʻzbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni 14-moddasida aynan mazkur vazifani bajarishga tashkiliy-amaliy asos boʻluvchi tezkor-qidiruv tadbirining turi mavjud emas;

- “jinoyatga tayyorgarlik koʻrayotgan, sodir etayotgan yoki sodir etgan shaxsni ushlash” tezkor-qidiruv tadbiri xorijiy davlatlar tezkor-qidiruv qonunchiligida va tezkor amaliyotida yoʻlga qoʻyilgan, masalan, bunday tezkor-qidiruv tadbiri Qozogʻiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni 11-moddasida koʻrsatib oʻtilgan va huquqiy tartibga solingan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan takliflarni Oʻzbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuniga kiritish Oʻzbekiston Respublikasida nafaqat bojxona sohasidagi jinoyatlarni, balki boshqa turdagi jinoyatlarni fosh etish boʻyicha tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini huquqiy va tashkiliy-amaliy jihatdan takomillashtirishga xizmat qiladi.

REFERENCES. IQTIBOSLAR. ЧОСКИ.

1. Xamdamov A., Saitbayev T., Gordeev S., Rashidxodjayev T., O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga sharh – T.: O‘zbekistan Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 68.
2. Shumilov A.Yu. Yuridicheskiye osnovi ORD. – M., 1999. – S. 125.
3. Zakurlayev A.K., Pulatov Yu.S. Tezkor-kidiruv faoliyati: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYUU, 2014. – B. 76.
4. Karimov V. “Tezkor-qidiruv faoliyati” darslik. – T.: BPA, 2021. – B. 244.
5. Karimov V. “Tezkor-qidiruv faoliyati” darslik. 2021-yil. – B. 242-243.
6. Karimov V. “Tezkor-qidiruv faoliyati” darslik. 2021-yil – B. 313-317.
7. Karimov V. “Tezkor-qidiruv faoliyati” darslik. 2021-yil – B. 315-316.
8. Kvachevskiy A.A. Ob ugovnom presledovanii, doznanii i predvaritelnom issledovanii prestupleniy po sudebnym ustavam. - SPb., 1864. - S. 5.
9. Sluchevskiy V.K. Uchebnik russkogo ugovnogo protsesssa. -SPb., 1913. -S. 107.
10. Veyngardt A Ugolovnaya taktika Petrograd. 1910; Geyndl R Ugolovnaya texnika. Iz materialov ugovnogo roziska - M , 1925, Shtiber V., Shneykert G. Prakticheskoye rukovodstvo dlya rabotnikov ugovnogo rozyska. - M., 1925. B-8.
11. Yakimov I.N. “Prakticheskoye rukovodstvo k rassledovaniyu prestupleniy” (1924 g.), “Sovremennoye rozisknoye iskusstvo” (1926 g.), “Kriminalistika. Ugolovnaya taktika” (1929 g.). B-5-8.

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3-4

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz